e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/jmdxah77

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIIY ADABIYOTIDA EPISTOLYAR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOGNITIV TASVIRI

Taxirova Nargiza Baxtiyorovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti, katta o‘qituvchi (PhD).
e-mail: tahirovanargiza329@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0007-4430-8751

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotidagi epistolyar matnlarda qo‘llangan frazeologik birliklarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e’tibori epistolyar frazeologik birliklarning inson hissiy holati, konseptual tajribasi, kommunikativ niyati va individual konseptosferasini ifodalashdagi o‘rniga qaratilgan. Frazeologik birliklar insonning borliqni idrok etishi, kategoriyalashtirishi va mavhum hodisalarni konkret tajriba asosida konseptuallashtirishi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani hamda Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” asaridagi epistolyar parchalar tanlandi. Tahlil jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual, komponent, konseptual va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida epistolyar frazeologik birliklarning “emotsiya – suyuqlik”, “iztirob – yuk”, “emotsiya – olov”, “emotsiya – frazeologik holat”, “inson – hayvon” kabi konseptual modellar asosida shakllanishi aniqlandi. O‘zbek epistolyar matnlarida emotsional holat ko‘pincha obrazli va metaforik frazeologizmlar orqali bevosita ifodalansa, ingliz epistolyar nutqida hissiy mazmun ko‘proq bilvosita pragmatik vositalar, kinoya, baholash va kommunikativ vaziyat orqali yuzaga chiqishi kuzatildi. Epistolyar frazeologik birliklar personaj ruhiyatini ochish, xarakterini individuallashtirish, kommunikativ munosabatini belgilash va badiiy obraz yaratishda muhim vosita ekanligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, epistolyar matn, frazeologik birlik, konsept, konseptosfera, kategoriyalashtirish, konseptual metafora, freym, emotsiya, pragmatika, badiiy matn.

КОГНИТИВНАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ЭПИСТОЛЯРНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Тахирова Наргиза Бахтиёровна
Национальный университет Узбекистана, старший преподаватель (PhD).

Аннотация.

В данной статье проводится сравнительный анализ когнитивно-прагматических особенностей фразеологических единиц, используемых в эпистолярных текстах английской и узбекской художественной литературы. Основное внимание в исследовании уделяется роли эпистолярных фразеологических единиц в выражении эмоционального состояния человека, его концептуального опыта, коммуникативных намерений и индивидуальной концептосферы. Фразеологические единицы анализируются в связи с процессами восприятия человеком окружающей действительности, её категоризации и концептуализации абстрактных явлений на основе конкретного опыта. Материалом исследования послужили эпистолярные фрагменты из романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» и произведения Джейн Остин «Гордость и предубеждение» (Pride and Prejudice). В процессе анализа использовались описательный, сравнительно-типологический, контекстуальный, компонентный, концептуальный и прагматический методы исследования. В результате установлено, что эпистолярные фразеологические единицы формируются на основе таких концептуальных моделей, как «эмоция — жидкость», «страдание — груз», «эмоция — огонь», «эмоция — фразеологическое состояние», «человек — животное». Выявлено, что в узбекских эпистолярных текстах эмоциональное состояние зачастую выражается непосредственно посредством образных и метафорических фразеологизмов, тогда как в английской эпистолярной речи эмоциональное содержание чаще передаётся косвенно — через прагматические средства, иронию, оценочные суждения и коммуникативную ситуацию. Обосновано, что эпистолярные фразеологические единицы являются важным средством раскрытия внутреннего мира персонажа, индивидуализации его характера, определения коммуникативных отношений и создания художественного образа.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, эпистолярный текст,

фразеологическая единица, концепт, концептосфера, категоризация, концептуальная метафора, фрейм, эмоция, прагматика, художественный текст.

COGNITIVE REPRESENTATION OF EPISTOLARY PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK FICTION

Taxirova Nargiza Baxtiyorovna,
National University of Uzbekistan, Senior Lecturer (PhD).

Abstract.

This article presents a comparative analysis of the cognitive-pragmatic features of phraseological units used in epistolary texts in English and Uzbek fiction. The study primarily focuses on the role of epistolary phraseological units in expressing human emotional states, conceptual experience, communicative intentions, and individual conceptual spheres. Phraseological units are analyzed in relation to how individuals perceive and categorize reality and conceptualize abstract phenomena on the basis of concrete experience. The research material consists of epistolary excerpts from Abdulla Qodiriy's novel O'tkan kunlar (Bygone Days) and Jane Austen's Pride and Prejudice. The study employs descriptive, comparative-typological, contextual, componential, conceptual, and pragmatic methods of analysis. The findings reveal that epistolary phraseological units are formed on the basis of conceptual models such as "emotion is a liquid," "suffering is a burden," "emotion is fire," "emotion is a phraseological state," and "human is an animal." It was observed that emotional states in Uzbek epistolary texts are often expressed directly through figurative and metaphorical phraseological expressions, whereas in English epistolary discourse, emotional meanings are more frequently conveyed indirectly through pragmatic devices, irony, evaluation, and communicative context. The study demonstrates that epistolary phraseological units serve as an important means of revealing characters' psychological states, individualizing their personalities, defining communicative relationships, and creating literary images.

Keywords: cognitive linguistics, epistolary text, phraseological unit, concept, conceptual sphere, categorization, conceptual metaphor, frame, emotion, pragmatics, literary text.

Kirish. XX asr tilshunosligida til birliklarini inson tafakkuri, idroki, xotirasi va tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi natijasida lisoniy birliklarning faqat struktur-semantik xususiyatlarini emas, balki ularning inson ongida shakllangan bilimlar tizimi, konseptual tajriba va kommunikativ faoliyat bilan munosabatini aniqlash imkoniyati kengaydi.

Kognitiv yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri til va tafakkurni o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganishdir. Inson tashqi olamni bevosita aks ettirish bilan cheklanmaydi, balki uni o'z tajribasi, bilimlari va mavjud mental tuzilmalari asosida qayta ishlaydi. Yangi ma'lumot avvalgi bilim bilan qiyoslanadi, kategoriyalashtiriladi va muayyan konseptual tizim tarkibiga kiritiladi.

Ma'lum muloqot sharoitida biror birlik tomonidan ifodalanayotgan sifat yoki xususiyat so'zlovchining tafakkurida boshqa biror kategoriyaga daxldor bo'lgan alohida xususiyatga qarama-qarshi qo'yiladi. Ushbu kategoriyaning boshqa xususiyatlari esa inobatga olinmaydi yoki butunlay yo'qoladi [1; 225-b.]. Har qanday so'z bir kontekstdan boshqasiga ko'chirilganda ma'noviy o'zgarishlarga uchraydi. Frazeologik birliklarning leksik-grammatik jihatlarini o'rganish nafaqat struktur-semantik jarayonlarni tavsiflash, balki yozuvchining frazeologik birliklardan foydalanish mahoratini baholash uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan frazeologik birliklar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar tarkibidagi komponentlarning lug'aviy ma'nosi bilan ularning yaxlit ma'nosi o'rtasida ko'pincha bevosita tenglik mavjud bo'lmaydi. Ularning ma'nosi tarixiy tajriba, milliy-madaniy tasavvurlar, obrazli idrok va assotsiativ bog'lanishlar asosida shakllanadi.

Frazeologik birliklarning badiiy matndagi qo'llanishi esa yanada murakkab hodisadir. Yozuvchi tayyor frazeologizmlarni o'zgarishsiz qo'llashi yoki ularning tarkibini, grammatik shaklini va semantik yo'nalishini kontekstga moslashtirishi mumkin. Natijada frazeologik birlik yangi ekspressiv-stilistik mazmun kasb etadi. Ayniqsa, maktub kabi subyektivlik darajasi yuqori bo'lgan epistolyar janrda bunday birliklar personajning ichki kechinmalarini ifodalashda katta imkoniyatga ega.

Epistolyar matn ikki kommunikant – adresant va adresat o'rtasidagi yozma muloqotni ifodalaydi. Maktub muallifi o'z fikri va hissiyotlarini bevosita og'zaki muloqotdagidek emas, balki yozma shaklda, muayyan kommunikativ maqsad asosida kodlaydi. Adresat esa ushbu xabarni o'zining bilimlari, tajribasi va kontekst haqidagi tasavvurlari asosida dekodlaydi. Demak, epistolyar kommunikatsiyada kognitiv va pragmatik omillar o'zaro chambarchas bog'lanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, epistolyar matnlardagi frazeologik birliklarning emotsional va konseptual xususiyatlarini ingliz va o'zbek badiiy adabiyoti materiallari asosida qiyosiy o'rganish til va tafakkur munosabatlarini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan lisoniy birliklarning mazmuni insonning konseptual tizimidan tashqarida

ISSN 3060-5059 (Online)

mavjud bo'la olmaydi. Inson borliqdagi predmet va hodisalarni muayyan belgilar asosida guruhlaydi, ularni o'zaro qiyoslaydi va umumlashtiradi. Ushbu jarayon kategoriyalashtirish deb yuritiladi.

Kognitiv tilshunoslik sohasi lisoniy ma'noning inson ongida shakllanishi va nutqda qo'llanishi masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ye. Kubryakovaning nuqtayi nazaricha, "narsa-hodisalarning kognitiv tahliliga ehtiyoj o'rganilayotgan hodisaning ongdagi va ularni voqelantiruvchi lisoniy birliklar o'rtasida real aloqa va munosabatlar asosida tadqiq qilinishi jarayonida tug'iladi" [2; 156-b.]. Shu sababli kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi, birinchidan, til birliklari va ularning asosida turgan bilim strukturalarining bog'liq jihatlarini ko'rsatish bo'lsa, ikkinchidan, "lisoniy tajriba yoki til birliklaridan foydalanish tajribasi asosida ushbu strukturalar, ularning mohiyati va o'zaro aloqalarini modellashtirishdir" [3; 18-b.].

Har qanday so'z bir kontekstdan boshqasiga ko'chirilganda ma'noviy o'zgarishlarga uchraydi. Frazeologik birliklarning leksik-grammatik jihatlarini o'rganish nafaqat struktur-semantik jarayonlarni tavsiflash, balki yozuvchining frazeologik birliklardan foydalanish mahoratini baholash uchun ham katta ahamiyatga ega. F. Ungerer va H. Schmid til birliklari mazmun strukturasining kognitiv tavsifiga oid masalalarga diqqat qaratdilar va shunday fikrga keldilar: "obyektlarning ko'p xususiyatliligi sababli, ularning tafakkurdagi idroki jarayonida yuzaga keladigan konsept integral ko'rinish oladi hamda shu asosda obyektning geshtalt tasavvuri yuzaga keladi. Shunga binoan, lisoniy birliklarning yuzaga kelishida muhim bo'lgan kategoriyalashtirish: "yaqinlik, qo'shnichilik tamoyili" – yaqin masofadagi predmetlar bir-biriga bog'liq holda idrok qilinadigan; "o'xshashlik tamoyili" – bir-biriga o'xshash alohida elementlar yaxlit bir bo'lak sifatida idrok etiladigan; "davomiylik, uzluksizlik tamoyili" – alohida elementlar o'rtasidagi uzilishlar qisqa bo'lganida ham ular yaxlitlik ko'rinishida idrok qilinadigan geshtalt tamoyillariga amal qilishi shart" [1]. [4; 131-b.]

Sh. Safarovning ta'kidlashicha, inson xotirasida mavjud bilimlar yangi voqelikni idrok etish va mental qayta ishlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Yangi bilim mavjud bilim asosida shakllanadi [5; 110-b.]. Demak, inson yangi tajribani avvalgi tajriba bilan qiyoslash orqali konseptual bilimni boyitadi.

Frazeologik bilimlarning shakllanishida ham xuddi shunday kognitiv mexanizmni kuzatish mumkin. Inson mavhum hodisalarni ko'pincha konkret predmet, harakat yoki holat bilan qiyoslaydi. Natijada abstrakt tushuncha konkret obraz orqali ifodalanadi.

Masalan, g'azabni "olov", muhabbatni "alanga", ruhiy iztirobni "yuk", qo'rquvni esa jismoniy holat orqali tasvirlash insonning konseptual tajribasiga asoslanadi. G. Lakoff va M. Johnson konseptual metaforani inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida izohlaydi. Ularning nazariyasiga ko'ra, abstrakt konseptlar ko'pincha konkret sohalar orqali tushuniladi [6; 391-b.].

Frazeologik birliklarda ham konkret va mavhum sohalarning o'zaro aloqasi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, "g'azab dengizida suzmoq" birikmasida g'azab mavhum holat bo'lsa, "dengiz" va "suzmoq" konkret tajribaga tegishli. Ushbu ikki sohaning birlashishi natijasida g'azabning kuchi va insonni to'liq qamrab olishi haqida konseptual tasavvur hosil bo'ladi. Shunday qilib, frazeologik birliklarning kognitiv tabiati uch bosqichda namoyon bo'ladi:

Konkret tajriba → konseptual umumlashtirish → obrazli lisoniy ifoda.

Bu jarayon epistolyar matnda yanada faol namoyon bo'ladi, chunki maktub muallifi o'zining ichki holatini adresatga imkon qadar ta'sirchan yetkazishga intiladi.

Epistolyar matnning asosiy kommunikativ birliklari adresant, adresat, xat matni, kommunikativ vaziyat va kommunikativ maqsaddan iborat. Ushbu elementlar o'zaro bog'langan holda yagona kognitiv-pragmatik tizimni tashkil etadi.

Maktub yozuvchisi o'z fikrini shakllantirar ekan, adresatning shaxsiyati, u bilan bo'lgan munosabatlari, oldingi muloqot mazmuni va kutilayotgan reaksiyasini hisobga oladi. Shu sababli epistolyar matnda til vositalarining tanlanishi tasodifiy emas. Epistolyar kommunikatsiyaning kognitiv modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

Adresant konseptosferasi → kommunikativ niyat → konseptuallashtirish → lisoniy kodlash → maktub matni → adresat tomonidan dekodlash → interpretatsiya.

Ushbu modelda frazeologik birliklar konseptni lisoniy shaklga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, inson "g'azab" holatini "men juda g'azablandim" tarzida ifodalashi mumkin. Ammo "g'azab dengizida suzdim" deyilganda, mazkur emotsional holat yanada kuchli obraz orqali beriladi. Natijada adresat faqat "g'azab" tushunchasini emas, balki uning kuchi, davomiyligi va insonni qamrab olganligini ham tasavvur qiladi.

Muhokama.

Demak, frazeologik birliklar epistolyar matnda semantik axborot + emotsional axborot + pragmatik axborotni bir vaqtning o'zida uzatish imkoniyatiga ega. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida maktublar syujet rivojida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Kumush va Otabek o'rtasidagi munosabatlarni ochib beruvchi maktublarda personajlarning emotsional holati va individual ruhiy dunyosi yorqin namoyon bo'ladi. Kumush nomidan yozilgan soxta maktubda quyidagi jumla uchraydi: "Men o'zimning bu maktubimni ko'z yoshlarim bilan yozayapman". Bu yerda "ko'z yoshlarim bilan yozayapman" ifodasi kuchli emotsional holatni ifodalovchi obrazli birlik sifatida namoyon bo'ladi. Adresantning ko'z yoshi real fiziologik holatni bildirsa-da, kontekstda u chuqur iztirob, alam va xafagarchilikning belgisi sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur ifoda asosida emotsiya – frazeologik holat modeli shakllanadi. Maktubning keyingi qismida: "Bu kunimdan bu hasratimdan qutilish uchun o'zimga ajal chaqiraman", deyiladi. "Hasratdan qutilmoq" ifodasida hasrat insonni o'rab olgan yoki unga yuk bo'lgan hodisa sifatida konseptuallashtiriladi. "Qutilmoq" fe'li esa mazkur holatdan xalos bo'lishni bildiradi. Bu yerda hasrat – yuk / og'irlik konseptual modeli yuzaga keladi. Kumushning Otabekka bergan bahosi ham juda obrazli: "hiylakor bir tulki, og'zi qon bir bo'ri, rahmsiz bir jallod…" Bu birliklarda insonning xarakter xususiyatlari hayvonlar va ijtimoiy rollar orqali kategoriyalashtiriladi. "Tulki" – ayyorlik va makr;

"boʻri" – tajovuzkorlik va shafqatsizlik; "jallod" – rahmsizlik va jazolash kabi konseptual belgilarni faollashtiradi.

Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" romanida ham maktublar personajlarning ichki dunyosini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq ingliz epistolyar nutqining oʻziga xosligi shundaki, emotsional mazmun har doim ham yorqin metaforik frazeologizmlar orqali berilmaydi. Koʻpincha u pragmatik vaziyat, kinoya, baholash va bilvosita nutqiy strategiyalar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, "I flatter myself…" iborasi lugʻaviy jihatdan "oʻzimni maqtayman" mazmunini beradi. Biroq kontekstda bu birlik personajning oʻziga yuqori baho berishini koʻrsatadi. Mazkur ifoda oʻz-oʻzini baholash konsepti bilan bogʻliq. U Mr. Collins xarakterining oʻziga xos tomonlarini ochishda xizmat qiladi.

Darcy maktubidagi "Be not alarmed, madam, on receiving this letter…" jumlasida esa adresant adresatning ehtimoliy ruhiy reaksiyasini oldindan hisobga oladi. "Be not alarmed" birikmasini qat'iy idiomatik frazeologizm sifatida belgilashdan koʻra, emotiv-pragmatik kollokatsiya sifatida baholash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq. Chunki uning mazmuni tarkibiy komponentlarning lugʻaviy ma'nosidan butunlay ajralib ketmagan. Bu jihat epistolyar frazeologizmlarni oʻrganishda muhim metodologik mezonni belgilaydi: har qanday obrazli yoki hissiy birlikni frazeologizm deb hisoblash mumkin emas. Shu sababli epistolyar birliklarni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Haqiqiy idiomatik frazeologik birliklar.
2. Turgʻun obrazli birikmalar.
3. Kontekstual-emotiv kollokatsiyalar.

NATIJALAR

Bunday tasnif ingliz va oʻzbek tillari materiallarini qiyoslashda ilmiy aniqlikni ta'minlaydi. Farq esa ularning lingvomadaniy va pragmatik realizatsiyasida namoyon boʻladi. Oʻzbek materialida emotsional konseptlar koʻproq obrazli, metaforik va ekspressiv birliklar orqali obyektivlashgan. Ingliz materialida esa ijtimoiy muomala me'yorlari, kinoya, muloyimlik, baholash va bilvosita kommunikativ strategiyalar muhim oʻrin egallaydi.

Ingliz va oʻzbek materiallarini qiyoslash shuni koʻrsatadiki, emotsional konseptlarning kognitiv asoslari koʻp hollarda universal xarakterga ega. Biroq ularning konkret lisoniy shakllari milliy madaniyat va adabiy an'ana bilan belgilanadi.

XULOSA

Shunday qilib, epistolyar frazeologik birliklar konsept – obraz – lisoniy birlik – emotsional baho – kommunikativ niyat – pragmatik ta'sir zanjiri asosida faoliyat koʻrsatadi. Ularning kognitiv-pragmatik tahlili badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini yanada chuqurroq ochishga, personajlarning ruhiy dunyosini modellashtirishga va yozuvchining individual uslubini aniqlashga imkon beradi. Kelgusida epistolyar frazeologik birliklarni kengroq badiiy korpus asosida tadqiq qilish, ularning chastotasi, konseptual guruhlari, tarjima ekvivalentlari va lingvomadaniy xususiyatlarini statistik hamda eksperimental usullar yordamida oʻrganish ushbu yoʻnalishning istiqbolli masalalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 555 с. – С. 225. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002416335
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 555 с. – С. 156. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_002416335/
3. Болдырев Н. Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004. – № 1. – С. 18–36. – URL: https://www.vcl.ralk.info/issues/2004/issue_1_2004/kontseptualnoe_prostranstvo_kognitivnoy_lingvistiki.html
4. Ungerer F., Schmid H. J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – Harlow: Longman, 1996. – 306 p. – P. 131. – URL: https://obnb.uk/p10696484-an-introduction-to-cognitive-linguistics
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 320 b. – B. 110. – URL: https://book.iiau.uz/books/pragmalingvistika-14852
6. Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and Its Challenge to Western Thought. – New York: Basic Books, 1999. – P. 391. – URL: https://www.hachettebookgroup.com/titles/george-lakoff/philosophy-in-the-flesh/9780465056743/
7. Qodiriy A. Oʻtgan kunlar: roman. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008. – B. 209. – URL: https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/otgan-kunlar.html
8. Austen J. Pride and Prejudice. – Planet eBook, 2008. – 479 p. – URL: https://www.planetebook.com/free-ebooks/pride-and-prejudice.pdf